
SERTIFIKAT TOPSHIRILDI

Joriy yilning 30 dekabr kuni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Farg'ona viloyat filialida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasining masofaviy malaka oshirish kurslari natijalari bo'yicha viloyat hamda tuman va shahar mahalliy hokimlik organlarining Tashkiliy-nazorat guruhlarini rahbarlariga sertifikat topshirish tadbiri bo'lib o'tdi.



Tadbirda agentlik filiali rahbari S.Islomov viloyatimizdagi shahar va tuman Tashkiliy-nazorat guruhi rahbarlariga sertifikatlarni topshirdi.

Ushbu tadbirda Qo'shtepa tumani Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari G'olibjon Madaminov ham ishtirok etib, agentlik filiali rahbari S.Islomovdan sertifikatni qabul qilib oldi.



Tadbir davomida S.Islomov barchani yaqinlashib kelayotgan yangi “2021 yil - Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” bilan qutlab, o’zining samimiy tilaklarini bildirdi.

Shuningdek, 2021 yilda oldinda turgan ustuvor vazifalar, Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, davlat xizmatiga ochiq tanlovlar, davlat xizmatchilarini malakasini oshirish va boshqa bir qator muhim masalalar yuzasidan kelishib olindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-31 13:24:58